

“O‘zbekiston Metallurgiya Kombinati” aksiyadorlik jamiyati
Komplayens – xizmati tomonidan joriy yilning dastlabki 6 oyi davomida amalga
oshirilgan ishlar to‘g‘risida HISOBOT

“O‘zbekiston Metallurgiya Kombinati” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda – *Jamiyat*) ning shtatlar jadvaliga asosan Komplayens – xizmatiga **5 ta** shtat birligi ajratilgan bo‘lib, shundan **3 nafar** xodimlar bilan to‘ldirilgan. Hozirda **2 ta** vakant lavozimlariga xodimlarni ishga olish bo‘yicha tanlov jarayonlari davom etmoqda.

Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan 2022-yil 14-dekabrda Komplayens – xizmatining **15 banddan** iborat 2023-yil ish rejasi tasdiqlangan. Ish rejasining **6 ta** bandi ijrosi to‘liq ta‘minlanib, qolgan **9 ta** bandi bajarilishi nazoratga olingan.

2023-yil 11-aprelda Jamiyatning ochiqlikni ta‘minlash yo‘nalishidagi faoliyatini yaxshilashga qaratilgan **9 ta** banddan iborat chora tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Dasturning **2 ta** bandi ijrosi to‘liq ta‘minlandi. Dasturning **7 ta** bandlari bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

2023-yil 24-mayda Jamiyat tizimida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarning buzilish xavflarni kamaytirish bo‘yicha **7 ta** banddan iborat chora – tadbirlar dastur tasdiqlandi. Dasturning **2 ta** bandi ijrosi to‘liq ta‘minlandi. Dasturning **5 ta** bandlari bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, Jamiyat Bosh direktori – Boshqaruv raisining ishchi – xodimlar va jamoatchilik uchun **korrupsiyaga qarshi kurashishga oid murojaati** ishlab chiqildi va xodimlar e‘tiboriga yetkazildi.

Jamiyatning www.uzbeksteel.uz rasmiy veb-saytida “Korrupsiyaga qarshi kurashish” va “Ochiq ma‘lumotlar” bo‘limlari joriy etildi. Mazkur bo‘limlarda ichki idoraviy hujjatlar, e‘lon qilinishi belgilangan ma‘lumotlar, murojaatlarni yuborish uchun tegishli (*ishonch telefoni va elektron pochta*) aloqa kanallari, ijtimoiy videoroliklar hamda Komplayens – xizmatining mas‘ul xodimlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar joylashtirildi hamda ushbu ma‘lumotlar doimiy tarzda yangilanib borilishi nazoratga olindi.

Joriy yilning o‘tgan davri mobaynida Komplayens – xizmatiga jami **8 ta** ijro hujjatlari kelib tushgan bo‘lib, barcha hujjatlarining ijrosi ta‘minlandi.

Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 31-avgustda 3383-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan (*korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash*) Uslubiyot hamda Jamiyatning tegishli ichki idoraviy hujjatlariga asosan Jamiyat markaziy apparatining **25 ta** tashkiliy birlik va bo‘linmalarning **142 ta** funksiyalari baholandi.

Jamiyatda xavf-xatarlarni oldini olish yuzasidan 2023-yil 17-iyul’da **136 banddan** iborat Dastur (Yo‘l xaritasi) tasdiqlandi.

Komplayens - xizmati tomonidan “O‘zmetkombinat” AJning ishlab chiqarish, moliyaviy, xo‘jalik va boshqa faoliyati bo‘yicha **xavflar xaritasi** ishlab chiqildi va joriy etildi, unda strategik, operatsion, moliyaviy va qonun hujjatlariga (komplayens xavflar) rioya qilish sohasidagi **229 ta** xavflar tavsiflangan.

Bundan tashqari, joriy yil **6 oyi** davomida tanlov asosida ishga qabul qilinuvchi **213 nafar** nomzodlar ustidan tekshiruvlar amalga oshirildi.

Komplayens - xizmati tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalarga muvofiq, Xodimlarni boshqarish departamenti kombinatning barcha tarkibiy va hududiy bo'linmalari ishchi - xodimlari tomonidan har yili manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalarni (shu jumladan, boshqa lavozimga o'tkazilganda va rotatsiya qilinganda) to'ldirilishini nazorat qilib bordi. Komplayens - xizmati tashabbusi va tavsiyasi bilan Xodimlarni boshqarish departamenti tomonidan mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi bandlar kiritildi.

O'quv seminarlari

Hisobot davrida Komplayens - xizmati tomonidan "O'zmetkombinat" AJ tarkibiy va hududiy bo'linmalari rahbarlari va yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xorijlik ekspert ishtirokida xavflarni boshqarish va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha **5 ta** umumiy va maxsus o'quv seminarlari tashkil etildi va o'tkazildi.

Komplayens - xizmati tashabbusi bilan har bir tarkibiy bo'linma va ishlab chiqarish bo'limidan xavflar bo'yicha **21 nafar** muvofiqlashtiruvchilar (koordinatolar) tayinlandi.

Maxsus o'quv seminarlarida asosiy e'tibor tayinlangan koordinatorlarni ishlab chiqarish, moliyaviy, xo'jalik va "O'zmetkombinat" AJ faoliyatidagi barcha xavflarni aniqlash va ularni qisqartirish hamda bartaraf etish bo'yicha tegishli mos tavsiyalar ishlab chiqish bo'yicha malakalarini oshirishga qaratildi.

Komplayans - xizmati tomonidan "O'zmetkombinat" AJ ning korrupsiyaga qarshi komplayens tizimiga oid ma'lumotlar" qo'llanmasi hamda "Korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi hamda boshqa qoidabuzarliklarni oldini olish yo'nalishida tarkibiy va hududiy bo'linmalarning majburiyatlari" maxsus o'quv kursi dasturlari va "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini tashkil etish va korrupsiyani oldini olish asoslari" malaka oshirish o'quv kurs dasturlari ishlab chiqildi.

Tashkilot va tashviqot

Xodimlar o'rtasida keng miqyosda targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish va ishchi – xodimlar huquqiy ongini oshirish maqsadida "O'zmetkombinat" AJ "Korrupsiyaga qarshi kurash Siyosati" va "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish Siyosat"lari asosida amalga oshirilayotgan chora - tadbirlar yo'nalishida Komplayens - xizmati tomonidan tegishli mavzularda **5 ta** audiorolik va **2 ta** videorolik tayyorlanib, Kombinat rasmiy veb-sayti va rasmiy telegram kanalida joylashtirildi. Ushbu yo'nalishlar doirasida **3 ta** yozma targ'ibot materiallari ishlab chiqilib, ular Kombinat rasmiy veb-sayti va rasmiy telegram kanalida xodimlar, hamkorlar, kontragentlar va barcha kuzatuvchilar e'tiboriga havola etilmoqda.

Xodimlarning murojaatlari va "ishonchli aloqa kanallarini" faoliyatining tashkil etilganligi

Kombinat tarkibiy va hududiy bo'linmalari ishchi - xodimlari o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi haqida holatlarni xabar berishlarini yengillashtirish maqsadida Telegram ijtimoiy tarmog'ida **UMK_Anticorbot** ishga tushirildi va ushbu ilovadan foydalanish bo'yicha videorolik tayyorlanib, rasmiy veb – sayt va ijtimoiy tarmoqlarda kuzatuvchilar hukmiga havola etilmoqda. Telegram ijtimoiy tarmog'idagi **UMK_Anticorbot 6 bo'limga** ega, jumladan:

- poraxoʻrlik va korrupsiya;
- buxgalteriya hisobining buzilishi;
- mehnat va mehnat sharoitlarining teng boʻlmaganligi;
- salomatlik, xavfsizlik va atrof-muhitga tahdid;
- axborotning chiqib ketishi (tarqatilishi) / yoʻq qilinishi;
- Boshqa qoidabuzarliklar.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar toʻqnashuvini hal qilish boʻyicha 2023-yilning hisobot va dastlabki davrlarida amalga oshirilgan tashkiliy ishlar toʻgʻrisidagi doimiy yangilanib turuvchi va toʻldiriladigan hisobot koʻrinishidagi maʼlumotlar Oʻzbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi tomonidan ishga tushirilgan Yagona Identifikatsiya tizimi (OneID) orqali “E-antikor.uz” elektron platformasiga tizimli ravishda kiritib borilmoqda.

Hisobot davrida Komplayens - xizmati tomonidan kontragentlar ishonchliligi va sanksiyalarga muvofiqligi boʻyicha tekshirildi:

2023-yil may oyidan **51 ta** savdo lotlari koʻrib chiqildi va **309 ta** kontragentlar tekshirilgan. Tekshiruvlar natijasida kontragentlar boʻyicha quyida keltirilgan holatlar aniqlangan:

- **23 ta** holatda soliq qazdorligi;
- **2 ta** holatda affilanganlik;
- **1 ta** sanksiyalar ostidagi tashkilot;
- **20 ta** debitor qarzdorligi;
- **2 ta** faoliyat koʻrsatmayotgan tashkilot;
- **1 ta** offshor zonasidagi tashkilotlar.

Komplayens – xizmati boshligʻi

Badalbayev A.A.

Korporativ xavfsizlik va resurslarni muhofaza qilish departamenti tomonidan joriy yilning dastlabki 6 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida HISOBOT

Hisobot davrida departamenti tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirildi.

71 marta - Ichki tekshiruvlar o'tkazildi. Natijalar bo'yicha quyidagilar amalga oshirildi:

- **22 nafar** xodim ishdan bo'shatildi;
- **39 nafar** xodim ish haqining ma'lum foizidan mahrum etildi;
- **55 nafar** xodimga tanbeh berildi;
- **18 nafar** xodimga ogohlantirish berildi;
- **9 ta** jinoyat ishi qo'zg'atilgan (Toshkent IQM Sergeli filiali tayyor mahsulotlarni inventarizatsiya qilish natijalariga ko'ra; XIMICH sexida **9,145 tonna** o'tga chidamli loy yetishmasligi; **2 ta** shar yetishmasligi holatlari bo'yicha, JXB katta qorovul navbatchisi Djuraboev F.F. va qo'riqchisi Yarlakabov G.K ga qasddan tan jarohati yetkazish, soxta ma'lumotnomalar asosida **2 ta** holat, **76 dona** dan ortiq miqdordagi po'lat quyma buyumlarni o'g'irlash, ijtimoiy tarmoqlarda kombinat rahbariyatga behayo so'zlar bilan haqorat va tuhmat qilish).

Kombinat xodimlarining aniqlangan noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan **26 ta** material huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborildi.

Ichki tekshiruv va inventarizatsiya jarayonida **2 558 025 086, 1 so'mlik** tovar va materiallarning o'g'irlanishi va zararlanishi aniqlanib, materiallar ko'rib chiqish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga o'tkazildi.

Jami **84 778 075, 1 so'm** zarar qoplandi. Yetkazilgan zararining qolgan qismini qoplash choralari ko'rilmogda.

Kombinat rahbariyati - **55 ta** vaziyatlar bo'yicha ma'lumotnomalar tuzilganligi bo'yicha xabardor qilindi. Natijada quyidagilar amalga oshirildi:

- **1 nafar** xodim ishdan bo'shatildi;
- **6 nafar** xodimlar ish haqining ma'lum foizidan mahrum qilingan;
- **13 nafar** xodimga "tanbeh" berildi;
- **5 nafar** xodimga ogohlantirish berildi;
- **30 ta** ma'lumotnomalar natijalari haqida rahbariyat xabardor qilindi;

Kombinat xodimlarining aniqlangan noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan **11 ta** material huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborildi.

Tekshiruv davomida **65 577 181, 0 so'mlik** tovar va materiallarning o'g'irlanishi va zararlanishi aniqlanib, materiallar ko'rib chiqish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirildi.

Jami **14 800 000, 0 so'm** zarar qoplandi. Yetkazilgan zararining qolgan qismini qoplash choralari ko'rilmogda.

Qabul qilingan arizalar bo'yicha **13 marta** tekshiruvlar o'tkazildi. Ularning natijalari bo'yicha quyidagilar amalga oshirildi:

- **3 nafar** xodimga ogohlantirish berildi;
- **8 ta** ma'lumot natijalari to'g'risida rahbariyatga ma'lumot berildi.
- **7 ta** holatda ma'lumot tasdiqlanmadi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birgalikda Respublika hududida umumiy qiymati **6.761.955, 000 so‘mlik 2704,782 tonna** qora metall parchalari noqonuniy aylanishiga oid holatlarga chek qo‘yildi, shundan **578,470 tonnasi** bo‘yicha **56 ta** material ma‘muriy jazo qo‘llanilishi uchun jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarga yuborildi. “Ikkilamchiqorametallar” filiallariga **2126, 312 tonna** metall parchalari qaytarildi.

Shuningdek, rahbariyatning ko‘rsatmasi bo‘yicha komissiya Kombinatga yetkazib beriladigan xom ashyoni tanlashda ishtirok etadi; **1 holatda**, komissiya tomonidan tovar va materiallarni yetkazib beruvchiga qaytardirdi (sifatsiz mahsulot).

99342 - sonli harbiy qism harbiy xizmatchilari tomonidan nazorat o‘tkazish punktlarida kirishni nazorat qilish tartibini buzganlik uchun **164 ta** bayonnoma tuzildi (ruxsatsiz kamera va flesh-karta bilan telefon olib yurish – **86 ta**, tegishli hujjatlarsiz chizmalarni kombinat hududidan olib chiqish – **2 ta**, yuk olib chiqish hujjatlarni noto‘g‘ri rasmiylashtirish – **15**, mulkka zarar yetkazish – **2**, o‘tish joyiga shikast yetkazish – **6**, nazorat-o‘tkazish punktida harbiy xizmatchiga bo‘ysunmaslik – **5**, disk olib yurish va chiqish – **1**, o‘g‘irlik qilishga urinish (hujjatlari to‘ldirilmagan tovar va materiallarni olib ketish) – **27**, spirtli ichimliklar ta‘sirida mastlik - **2**, o‘z mehnat vazifalariga beparvo munosabat - **2**.

Idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash bo‘limi tomonidan o‘tgan davr mobaynida obyekt ichki tartib qoidalarini buzganlik uchun **75 ta** bayonnoma tuzildi, tovar va materiallarni o‘g‘irlashga urinish – **11 ta**, kiyinish qoidalari va o‘z mehnat vazifasiga beparvo munosabatda bo‘lish – **61 ta**, gadjet olib kelish kombinat hududiga - **17 ta**, ho‘jalik tartiblarini buzish - **3 ta**.

Loyihalarni boshqarish departamenti, EnS, KQvaQMI boshqarmasi, ATS bo‘limlarida **63 ta** kompyuter axborot xavfsizligi qoidalariga muvofiq tekshirildi va **57 nafar** xodim axborot siyosati bilan tanishtirildi. Aniqlangan qoidabuzarliklar yuzasidan **11 nafar** xodimdan tushuntirish xati olindi.

Videokuzatuv kameralari orqali (Yagona logistika markazi, Sotib olishlar boshqarmasi, IQM) xodimlar tomonidan **11 ta** mehnat qoidalarini buzish holatlari aniqlandi.

Ijtimoiy tarmoqlarda (Facebook, Telegram, YouTube, Google) kombinat haqida e‘lon qilingan ma‘lumotlarni kuzatib borildi va ularga izoh berildi.

Facebook ijtimoiy tarmog‘ida (Mehnat harakati) e‘lon qilingan postlar asosida muhokamada qatnashgan **70 nafar** ishtirokchidan **25 nafar** kombinat xodimlarining ishtiroki aniqlanib, ulardan ma‘lumotlar olindi va rahbariyatga taqdim etildi.

15 ta IQM filiallarida qayd etish moslamalari va videokuzatuv tizimlariga kirishni bloklash ishlari olib borildi, videokuzatuv guruhi va axborot xavfsizligi bo‘limi tomonidan onlayn nazorat qilish uchun internet tarmog‘i orqali **234 ta** kamera kombinatning yagona videokuzatuv tizimiga ulandi.

Kombinatning axborot tizimlarida:

- **36 ta** foydalanuvchi pochta serverida bloklandi;
- Internetga kirish **681 nafar** foydalanuvchi uchun cheklandi;
- AD domen tizimida **38 ta** foydalanuvchi bloklandi;

- antivirus dasturi orqali **20** foydalanuvchiga tashqi xotira vositalari bilan ishlash huquqi berildi;

- **183 nafar** foydalanuvchiga internet tarmog‘idan foydalanish imkoniyati yaratildi;

- Kombinatning korporativ pochta-sida **229 ta** akkaunt ro‘yxatga olindi;

- **82 ta** foydalanuvchi Wi-Fi tarmog‘iga kirish imkoniga ega;

- AD domen tizimida **49 ta** foydalanuvchi ro‘yxatdan o‘tgan;

- **26 nafar** foydalanuvchi edo.ijro.uz tizimi hamda videokuzatuv tizimlari uchun cheksiz Internet (NAT) bilan ta‘minlandi;

- IQM foydalanuvchilari uchun VPN masofaviy kirish tizimida **131 nafar** foydalanuvchi ro‘yxatga olingan;

- **740 nafar** internet foydalanuvchilari inventarizatsiya qilindi;

- Foydalanuvchilar toifalari va kasblari bo‘yicha **2309 nafar** 1C ISUP foydalanuvchilari inventarizatsiyadan o‘tkazildi;

- Kombinatning korporativ pochta-sida xakerlik va nazoratsiz reklama jo‘natmalari (SPAM) holatlari aniqlandi va oldi olindi, **2800 domen** bloklandi;

- Kombinatdan ishdan bo‘shatilgan **279 nafar** ishchi ro‘yxati asosida inventarizatsiya o‘tkazildi va barcha axborot tizimlariga kirish yopildi.

Kirish nazorati tizimi tomonidan noqonuniy xatti-harakatlar va mehnat intizomini buzgan kombinatning **384 nafar** xodimi aniqlandi.

Videokuzatuv kameralariga zarar yetkazgan **3 nafar** kombinat xodimlaridan tushuntirish xati olinib, tushuntirish ishlari olib borildi.

IQMning 24 ta filiali uchun og‘irlikni qo‘lda kiritish bo‘yicha ma‘lumotlar tekshirildi va tortish ko‘rsatkichlarini o‘zgartirish uchun **114 yuk** mashinasi va **6** vagondagi IQM tarozilariga kirish ta‘minlandi.

Temiryo‘l markaziga qarashli **5 ta** teplovozga **25 ta** kamera o‘rnatilib, yuk tashishni nazorat qilish va nazorat qilish maqsadida internet orqali masofadan ulanish yo‘lga qo‘yildi.

Ayni paytda kombinat xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlari, korrupsiya jarayonlari to‘g‘risida ma‘lumotlar yig‘ish davom etmoqda. Korrupsiyaviy, firibgarlik va manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini sodir etilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan sabab va sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha profilaktika tadbirlari tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

Korporativ xavfsizlik va resurslarni
himoya qilish departamenti direktori

Xojiev T.T.